



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

150300, Beshariq tumani, Oltin Vodiy ko'chasi, 46-uy, tel.: (998 73) 612 21 19,
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: beshariq.t-yurmarkaz@adliya.uz

13.01.2022 yil

Beshariq tuman
Tibbiyot birlashmasi

XULOSA

(Tibbiyot birlashmasining 1-sonli
shartnoma loyihasiga)

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyhaning nomi: Byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash to'g'risidagi № 1-sonli shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022 yil 12 yanvar kuni ishlab chiqilib, 2022 yil 12 yanvar kuni markazga taqdim qilingan.

4.Loyiha bo'yicha taklif: Beshariq tuman tibbiyot birlashmasi hamda Farg'ona HETK AJ asosida faoliyat yurituvchi Besharik TETK o'rtasida elektr energiyasi bilan ta'minlash to'g'risidagi № 1-sonli shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-I-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qo'yiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 71-modda, 1-qismi, 1-xatboshida **yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshirilishi ko'rsatilgan.**

Mazkur qonunining 71-modda, 2-qismida yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo'lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda davlat buyurtmachisi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to'g'risidagi axborot u tuzilgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Farg'ona HETK AJ O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlari maxsus axborot portalida yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

XULOSA

Mazkur shartnoma loyihasini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

Beshariq tuman YuXKM
bosh yuriskonsulti:



F.Jo'rayev